
FARG'ONA SHAHAR HOKIMLIGINING BILDIRISHI

Ijtimoiy tarmoqlarda Farg'ona shahridagi A.Navoiy ko'chasining S.Temur va Farobiy ko'chalari bilan kesishmasida joylashgan 2 qavatli eski uylar buzilganligi haqida murojaat bayon qilingan. Farg'ona shahar hokimining 2019 yil 8 yanvardagi qaroriga binoan ushbu hududdagi 6 ta 2 qavatli ma'nan eskirgan uylardagi jami 65 ta xonadon buzilgan. Buning evaziga, xonadonlar egalariga yangi qurib bitkazilgan Farg'ona shahar Registon ko'chasida joylashgan 3 va 4-uylardan yangi xonadonlar berilgan. Ular ushbu xonadonlarga ko'chib o'tgan va uy kadastr hujjatlari to'liq tayyorlab berilgan.

2020-01-21 16:34:22